IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

HUKUMAT FAOLIYATINI AQLLI TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MUAMMOLARI

Sobitov Ilxomjon Umidjon o'g'li
Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy Tadqiqot Universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
+ 998 90 752 08 25
sobitovilhomjon74@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20195559

Annotatsiya:
Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini raqamlashtirishning huquqiy va strategik asoslari, xususan, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun va Taraqqiyot strategiyalarining ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya jarayonida aholi va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarning samaradorligi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (my.gov.uz) imkoniyatlari va xalqaro indekslardagi ko'rsatkichlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "Raqamli hukumat" tizimiga o'tish orqali byurokratiyani kamaytirish va shaffoflikni oshirish masalalari yoritilgan.

Аннотация
В данной статье анализируются правовые и стратегические основы цифровизации государственного управления в Республике Узбекистан, в частности значение закона «Об электронном правительстве» и стратегий развития. Рассматриваются эффективность электронных услуг, предоставляемых населению и предпринимателям в процессе цифровой трансформации, возможности Единого портала интерактивных государственных услуг (my.gov.uz) и показатели в международных индексах. Также освещены вопросы сокращения бюрократии и повышения прозрачности через переход к системе «Цифрового правительства».

Annotation
This article analyzes the legal and strategic foundations of digitalizing public administration in the Republic of Uzbekistan, specifically the significance of the Law "On E-Government" and national development strategies. It examines the efficiency of electronic services provided to citizens and businesses during the digital transformation process, the capabilities of the Single Interactive Public Services Portal (my.gov.uz), and the country's performance in international indices. Furthermore, it highlights the issues of reducing bureaucracy and increasing transparency through the transition to a "Digital Government" system.

Kalit so'zlar: Raqamli hukumat, elektron hukumat, davlat xizmatlari, "Raqamli O'zbekiston — 2030", my.gov.uz, raqamli transformatsiya, ma'muriy islohotlar, ochiq ma'lumotlar.

Raqamlashtirish bo'yicha davlat siyosati texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va moddiy rivojlanish uchun sifatli asosni shakllantirishga hamda inson va jamiyat hayotining barcha sohalarida barqaror oldinga siljish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Texnologik rivojlanishning tobora kuchayib borayotgan global muammolar sharoitida davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish jarayoni eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu

bilan birga, davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy xavf-xatarlarning kuchayishi sharoitida alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. “Raqamli boshqaruv”, “elektron hukumat” tushunchalari XXI asr mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda hamda bu ommaviy boshqaruv jarayonining asosiy elementlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu fuqarolik jamiyatining ishtirokchilari, xususan, davlat boshqaruv organlari rahbarlari siyosiy ideallikka intilayotgan hamda fuqarolar tomonidan korrupsiyaviy holatlar hamda yashirin institutlarga qarshi kurashda foydalaniladigan standart hisoblanadi.

Raqamli davlat boshqaruvining zamonaviy usullari va modellari ba'zi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Yu. I. Trechevskiyning ta'kidlashicha, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish uchun raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega, ya'ni turli quyi tizimlar ichidagi tashkiliy, ishlab chiqarish, texnologik aloqalarning o'zgarishi bilan o‘zaro bog'liq.[1] Yu. I. Gribanov axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot jamiyati elementlarini rivojlantirishni aksariyat zamonaviy mamlakatlar uchun strategik vazifalar va umummilliy ustuvorliklardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tgan.[2]

Umuman olganda fikrimizcha, davlat boshqaruvini raqamlashtirish fuqarolar hamda tashkilotlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali mamlakatda davlat siyosatining ochiqligi hamda shaffofligi ta’minlanadi va iqtisodiy o‘sishni, innovatsiyalarni rag‘batlantirish bilan bir qatorda tegishli sektorlarni rivojlantirishda birlamchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida electron hukumat tizimi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solib kelinmoqda. Xususan, 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Elektron hukumat tog‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat boshqaruvini raqamlashtirish sohasida muhim islohotlardan biri bo‘lib, mazkur qonun bilan “elektron hukumat”, “davlat xizmati”, “elektron davlat xizmati” kabi tushunchalarning mazmun mohiyati ochib berildi. Jumladan, “elektron hukumat” bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilgan holda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari esa “elektron davlat xizmati”dir.

O‘zbekistonda elektron hukumat davlat organlari faoliyatining ochiqligi, elektron davlat ximzatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, “bir darcha” prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish, davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish, axborot xavfsizligini ta’minlash kabi muhim prinsiplar asosida amalga oshiriladi. “Elektron hukumat tog‘risida”gi qonunning 4-moddasiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, unda elektron hukumatning asosiy vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta’minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;

[1] Трещевский Ю.И., Праченко А.А. Угрозы развитию цифровой экономи-ки в России // Цифровая экономика и онлайн-обучение: Европейский опыт, 2020, с. 103-114

[2]Грибанов Ю.И. Перспективная мо-дель государственного управления для формирования эффективного механизма взаимодействия экономических субъек-тов в условиях цифровизации экономи-ки // Шумпетеровские чтения Пермского национального исследовательского по-литехнического университета, 2018, с. 95-114

➢ ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

➢ o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

➢ aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida “bir darcha” prinsipini joriy etish;

➢ tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;

➢ tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

➢ naqd bo‘lmagan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.[3]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-son Farmoni bilan ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishi doirasida ma’muriy tartib-taomillarni optimallashtirish, boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish, hududlar va butun mamlakatda yuzaga kelayotgan tahdid va muammolarga o‘z vaqtida hamda munosib ta’sir ko‘rsatish uchun axborot almashishning samarali tizimini shakllantirish maqsadida barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida “Elektron hukumat” tizimi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek “yagona darcha”, idoraviy markazlar negizida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlarini tashkil etish zarurligi belgilandi.

Umuman olganda, hozirgi kunga qadar mazkur sohani tartibga soladigan 100 ga yaqin me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va qonunchilik asoslari yaratildi. Mamlakatda davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirib borilmoqda. Davlat xizmatlaridan aholi va tadbirkorlar foydalanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida elektron davlat xizmatlarining soni va sifati oshirildi. Tadbirkorlarning bir qator faoliyat turlari bo‘yicha litsenziyalar olishi zarurligi tartibi bekor qilindi va ularga litsenziya olish uchun onlayn ariza yuborish imkoniyati yaratildi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasini sifat jihatdan yangi darajaga o‘tish yo‘lidagi ayrim tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida, 2017-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur Farmonda davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, ochiq-oshkoraligi va foydalanish imkonini oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar belgilab berildi. Shuningdek, mazkur sohada davlat siyosatini amalga oshiruvchi alohida davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy

[3] https://lex.uz/acts/-2833860

bo‘linmalari tashkil etildi. Natijada, amalga oshirilayotgan islohotlar uyg‘unligi va samaradorligi ta’minlanib, davlat xizmatlarini sifatli amalga oshirish uchun vakolatli organlar javobgarligi va mas’uliyati oshirildi.[4]

“Elektron hukumat” doirasida yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), ochiq ma’lumotlar portali (data.gov.uz), me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini mukokama qilish portali (regulation.gov.uz), “yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizimi (birdarcha.uz) kabi yirik loyihalar amalga oshirildiki, ushbu ishlar natijasida aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifat jihatidan yaxshilandi.

“Elektron hukumat” tizimini yanada takomillashtirish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sirasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PF–4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni kiritishimiz mumkin. Farmon bilan O‘zbeksiton Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi tashkil etildi hamda uning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, elektron hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta’minlash; davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish; davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish; elektron hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish va boshqalar shular jumlasidandir.

2022-yilning 28-yanvar kuni qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”dan o‘rin olgan 9-maqsadga ahamiyat beradigan bo‘lsak, unda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etishga oid tegishli vazifalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko‘rsatishni kengaytirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish, shaxsga doir ma’lumotlarning himoyasini ta’minlaydigan ruxsat berish hamda xabardor qilish tizimini joriy etish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o‘tkazish va boshqalar.

Mazkur strategiyaning mantiqiy davomi hisoblanagan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha tegishli maqsad hamda vazifalar belgilangan bo‘lib, ular sirasiga davlat xizmatlarining 40 foizini xususiy sektorga o‘tkazish va fuqarolarning shaxsiy ishtirokini 2 barobarga qisqartirish, “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta’minlash, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, Elektron hukumatlar xalqaro reytingida 2020-yili O‘zbekiston mavqeining pasayishi bilan bog‘liq holat, xususan, elektron hukumatlar xalqaro reytingida 6 pog‘onaga pastlab, 193 davlat orasida 87-o‘rinni egallagan hamda ushbu holatni bartaraf etish O‘zbekistonda elektron hukumat rivojiga va uning elektron hukumatlar global indeksidagi mavqeini yaxshilashga yordam beradigan omillarni chuqur o‘rganishni taqozo etdi. Xuddi shu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatimiz 2022-yilga kelib, 18 pog‘ona yuqorilab 193 davlat orasida 69-o‘rinni qayd etdi. Mazkur o‘tkazilgan indeksda Daniya, Finlandiya, Janubiy Koreya davlatlari tegishli ko‘rsatkichlar bilan (97.17, 95.33, 95.29) yuqori pog‘onalarni qayd etgan.5 Bundan tashqari “Oxford Insights” tomonidan o‘tkazilgan

[4] Davlat boshqaruvi. Darslik. //Mas’ul muharrirlar: Adham Bekmurodov, Djexo Li, Chjonxun Che. — Toshkent: “Akademiya”, 2021. 269-b

[5] https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan

“Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksi” (“Government Artificial Intelligence Readiness Index”) tahlilida 2025-yil mamlakatimiz 62-pog‘onani qayd etdi. Umuman olganda, mazkur davlatlar tajribasi asosida amaldagi elektron hukumat tizimini yanada keng joriy etish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli hukumat (Digital Government)ning asosiy jihati Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini joriy etilganligi bo‘lib, bugungi kundagi statistika ma’lumotlariga ahamiyat beradigan bo‘lsak, portaldan jami foydalanuvchilar soni 15 mln.ni jami xizmatlar soni 858 tani (639 tasi mobil ilova orqali)ni tashkil etadi. Foydalanuvchilar gender bo‘yicha 56.21 foiz erkaklar 43.79 foiz ayollardan iborat.[6]

O‘zbekistonda raqamli hukumat tizimining joriy etilishi shunchaki texnologik yangilanish emas, balki davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiquvchi ijtimoiy-huquqiy islohotdir. "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi qonun va strategik dasturlar sohaning mustahkam poydevorini yaratdi, korrupsiyani kamaytirish hamda vaqtni tejashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning BMT va boshqa xalqaro reytinglarda (masalan, AI Readiness Index) o‘sishi islohotlarning to‘g‘ri yo‘nalishda ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, kelajakdagi asosiy vazifa — barcha davlat idoralarini to‘liq qog‘ozsiz ish yuritishga o‘tkazish (Digital-first) va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda proaktiv (fuqaro so‘ramasdanoq xizmat ko‘rsatish) tizimni shakllantirishdir.

Foydalanilgan manbalar

1. Davlat boshqaruvi. Darslik. //Mas’ul muharrirlar: Adham Bekmurodov, Djexo Li, Chjonxun Che. — Toshkent: “Akademiya”, 2021. 269-b
2. Трещевский Ю.И., Праченко А.А. Угрозы развитию цифровой экономи-ки в России // Цифровая экономика и онлайн-обучение: Европейский опыт, 2020, с. 103-114
3. https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan
4. https://my.gov.uz/uz/statistics
5. LEX.uz

[6] https://my.gov.uz/uz/statistics